

YAPON TILIDAGI ISTAK VA XOHISHNI IFODALOVCHI FE'L SHAKLLARINI O'ZBEK TILIDAGI V-MOQCHI FE'L SHAKLI BILAN QIYOSLASH VA YAPON TILI TA'LIMIGA TAKLIF



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15569511>

Shinsuke HIDAKA

University of Tsukuba

Abstract: Previous studies have stated that V-moqchi in Uzbek, a language of the Turkic family's Southeastern branch, conveys intention, plan, and desire. However, a unified description of its meaning has not yet been established. This study aims to provide a consistent account of V-moqchi's meaning by contrasting it with Japanese, where intention, plan, and desire are expressed through distinct forms. Specifically, it compares V-moqchi with the Japanese expressions for intention ((-u)=tumori=da "intend to do"), desire ((-i)-tai "want to do"), and plan ((-u)=yotei=da "plan to do"), using examples from prior research and the author's own data. The findings reveal that V-moqchi corresponds to both intention (-u)=tumori=da and plan (-u)=yotei=da. Consequently, this study concludes that V-moqchi primarily expresses a plan. I suggest a point to consider when a teacher instructs Uzbek native speakers on Japanese (-i)-tai, based on this conclusion.

Keywords: Japanese, Uzbek, intention, plan, V-moqchi

Annotatsiya: Oldingi tadqiqotlarda turkiy tillarning janubi-sharqiy guruhi tarkibiga kiruvchi o'zbek tilidagi V-moqchi shakli niyat, reja va xohishni ifodalashni ta'kidlangan. Biroq, uning ma'nosi bo'yicha yagona tavsif hali shakllanmagan. Ushbu tadqiqot V-moqchi shaklining ma'nosini to'liq yagona tasvirlashni maqsad qilgan bo'lib, u maqsad, reja va xohish alohida shakllar bilan ifodalanadigan yapon tili bilan qiyoslanadi. Xususan, ushbu shakl yapon tilidagi maqsadni ifodalovchi (-u)=tumori=da, xohish-istakni ifodalovchi (-i)-tai, hamda rejani ifodalovchi (-u)=yotei=da shakllari bilan solishtiriladi. Tahsil esa oldingi tadqiqotlardan olingan yoki muallif tomonidan tuzilgan misollarga asoslangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, V-moqchi shakli maqsadni ifodalovchi (-u)=tumori=da hamda rejani ifodalovchi (-u)=yotei=da shakllari bilan mos keladi. Shu sababli, ushbu tadqiqot oxirda V-moqchi shakli asosan reja ma'nosini anglatadi degan xulosaga kelindi. O'qituvchi o'zbek tilisi ona tili bo'lgan talabalarga yapon tilidagi (-i)-taini o'rgatayotganda, shu xulosaga asoslanib, e'tiborga olish kerak bo'lgan fikrni taklif qilaman.

Kalit so'zlar: yapon tili, o'zbek tili, maqsad, reja fe'l shakli, V-moqchi

Kirish. O'zbek tili (Tukiy tillarning janubiy-sharqiy guruhiga tegishli) dagi V(erb stem)-moqchi o'zbek tilining gramatikasi (Kononov 1960, Bodrogligli 2003) ga ko'ra, maqsadni ifodalaydi. Hidaka (2021) "muqarrar/belgilangan maqsad" (Moriyama 1990) yoki rejani ifodalashini va Hidaka (2024) amalga oshish imkoniyati baland bo'ladigan voqeа-hodisaga tegishli xohishni ifodalashini aytadi. Ammo, oldingi tadqiqotlar V(erb stem)-moqchi ning to'liq yagona izohini bera olmadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi xohish-istak, maqsad va reja turli shakllarda

ifodalanadigan yapon tili bilan qiyoshlash orqali *V-moqchining* yagona izohini yoritib berishdir. Bu maqolada muallif maqsadni ifodalovchi (-u)=*tumori=da*, xohish-istik ifodalovchi (-i)-*tai* va rejani ifodalovchi (-u)=*yotei=da* ni Hidaka 2021 va 2024 da ko'rsatilgan yoki muallif tomonidan keltirilgan misollar bilan qiyoslaydi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, *V-moqchi* shakli ko'p jihatdan (-u)=*tumori=daga* o'xshash, lekin shuningdek (-u)=*yotei=da* ifodalagan ma'noga ham ega, ya'ni so'zlovhidan boshqa odamlarning kelishib, qaror qilingan hodisalarga ham ishlatishi mumkin. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, *V-moqchi* rejani ham ifodalaydi.

Bu maqola quydagicha tuzilgan: 2-bo'limda oldingi o'tkazilgan tadqiqot va muhokamalardan kelib chiqqan natija asosida xulosani keltiramiz. Ushbu maqola Hidaka (2024b) maqolasining qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitilgan nuxsasi hisoblanadi.

1. Oldingi ilmiy tadqiqotlar va muammolarni ko'rsatish

Avvalo, o'zbek tilining grammatikasidagi *V-moqchining* fe'l shaklining ma'nosi haqidagi tavsiflarni tekshiraman. Keyin, Hidaka 2021 va 2024 yilda chop etgan maqolasining tavsiflarini tekshiraman. Hidaka 2021 yilda chop etgan maqolasida *V-moqchi* fe'l shaklining mazmunini "muqarrar/belgilangan maqsad" (Moriyama 1990) sifatida ifodalaydi. Hidaka 2024 yilda chop etgan maqolasida xohishni bildiradigan fe'l shakllari orasidagi farqlarni yoritib beradi. Asosan, o'zbek tilida yozilgan misollarning katta qismi muallif tomonidan yozilgan. Keyin bu missollar yapon tiliga tarjima qilib, ikki tilidagi misollar ona tili o'zbek tili bo'lgan talabalarga ko'rsatildi. Ushu talabalar misollarni o'qib to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aytishdi. Oxirgi bo'limda muammolar yoritib beriladi.

Kononov 1960 yilda, Bodrogligli 2003 yilda chop etgan O'zbek tilining grammatikalarida *V-moqchi* fe'l shakli maqsad (Kononov 1960: 278) yoki ifoda mayli (Bodrogligli 2003: 708) sifatida tushuntirilib, misollar bilan yozilgan.

Sen-ga bir yaxshilik qil-moqchi=man.

2SG-DAT one goodness do-INT=1SG

'Я желаю тебе сделать добро'

'Watasi wa kimi ni hitotu yoi koto wo s-i-tai.' (Kononov 1960: 279)

Shuningdek, Bodrogligli (2003: 708) ifoda mayli sifatida tushuntirgan *V-moqchi* fe'l shakli so'zlovhining nimadir qilish yoki nimadir qilmaslik kabi qarorini ifodalaydi deb yozgan.

(2) *U maktab-da ol-gan o'z nazariy bilim-lar-i-ni*
3SG school-LOC take-PTCP.PAST own theoretical knowledge-PL-3.POSS-ACC

tajriba-da qo'lla-b yetuk jurnalist bo'l-moqchi.
experience-LOC use-CVB.SEQ meture journalist become-INT

'Kanozyo wa gakkou de eta zisin no riron-teki na tikisi wo zissai ni mochiite, rippa

na zyaanarisuto ni nar-i-tai.¹ (Bodrogligli 2003: 709)

V-moqchi fe'l shakli o'zidan keyin *emas* so'zini olganda inkor ma'nosini ifodalaydi va *edi* so'zi yordamida o'tgan zamonni ifodalaydi. *V-moqchi* fe'l shaklining inkor shakli, o'tgan zamon shakli va o'tgan zamon inkor shaklini misollar orqali ko'rsataman: *yoz-moqchi emas=man* [write-INT NEG=1SG] '(я) не намерен (на)писать' 'Kaku tumori de wa nai.', *yoz-moqchi edi-m* [write-INT PAST-1SG] '(я) намеревался || предполагал (на)писать' 'Kaku tumori datta.', *yoz-moqchi emas edi-m* [write-INT NEG PAST-1SG] '(я) не намеревался (на)писать' 'Kaku tumori de wa nakatta.' (Kononov 1960: 279).

Hidaka 2021 yilda chop etgan maqolasida yapon tili grammatikasidagi mayl haqidagi tadqiqot natijalari (Moriyama 1990) dan foydalanib, *V-moqchi* fe'l shaklining "muqarrar/belgilangan maqsad" mayl sifatida ifodalanishini yoritib beradi. Moriyama (1990: 9) 3-misolni ko'rsatib, qoida doirasidan chiqqan misol hisoblaydi. Bunga qo'shimcha ravishda, Moriyama (1990: 9) bu misolni quyidagicha izohlab beradi: "bunday, (-u)=*tumorida* misolida muqarrar/belgilangan maqsad mavjud va gap ma'nosiga bog'liq bo'limgan holda so'zlovchining esida qo'ladi. Shuningdek gap davomida muqarrar/belgilangan maqsad o'zgarishga uchrashmaydi."

- (3) ??*Dewa watasi=ha asu sanji=ni kenkyuusitu=ni*
INTJ 1SG=TOP tomorrow three.o'clock=DAT laboratory=DAT
ukaga-u=tumori=des-u.
go.HON-IND=intent=COP.HON-IND

[Kutilgan tarjima: Unday bo'lsa, men ertaga soat uchda kabinetga bormoqchiman.]

O'zbek tilida so'zlovchining maqsadi aynan suhbat dovomida aniqlashganda, *V-moqchining* qo'llanilishi qoida doirasidan chiqadi. Buni biz A va B so'zlovchi o'rta sidagi suhbat 4-misolda ko'ramiz.

- (4) A: *Kim=dir u yer-ga bor-ib, un-ga yordamlash-ib*
who=IND that place-DAT go-CVB.SEQ 3SG-DAT help-CVB.SEQ
yubor-ol-ma-y=di=mi?
send-POT-NEG-NPST=3=Q
'Dareka soko ni itte kare wo tetsudatte kurenai ka?'

- B: ?? *Bo'l-di, Men bor-moqchi=man*
be-PAST 1SG go-INT=1SG

¹ Muallif Bodrogligli (2003: 709) tomonidan ingliz tilida berilgan 'Applying in practice the theoretical knowledge she has obtained in school she wants to become an able journalist.' ushbu misolning ostiga chizilgan qismini 'rippa na zyaanarisuto ni nar-i-tai' sifatida tarjima qildi.

‘Wakarimasita, watasi ga ikimasu.’ (Hidaka 2021)

Hidaka 2021 yilda chop etgan maqolasida *V-moqchi* biror-bir rejani ifodalashda ham ishlatiladi deydi. Bunga 5-misol qilib, vebdag'i xabar sarlavhasini keltiradi.

- (5) *O'zbekiston 2020 yil-gacha eksport hajm-i-ni*
Uzbekistan year-until export quantity-3.POSS-ACC

25 *milliard dollar-ga yet-kaz-moqchi.*

billion dollar-DAT reach-CAUS-INT

‘Uzubekisutan wa 2020 nen made ni yusuturyou wo 250 oku doru ni toutatu saseru yotei de aru.’

(Hidaka 2021; <https://www.ozodlik.org/a/27355234.html> [Oxirgi ko'rilmagan sana: 2024/01/21])

5-misoldagi *yet-kaz-moqchi* ‘toutatu saseru yotei de aru (yetkazilishi rejalahtirilgan)’ deb tarjima qilindi. Hidaka 2024 yilda chop etgan maqolasida bu tarjima ustida to‘xtalmadi. Ushbu maqolaning 3.3 bo‘limida yana 5-misolga qaytamiz.

Hidaka (2024) xohish ifodalaydigan uch forma (1. *V-moqchi*, 2. *V-gi kel-* ‘lit. V suru koto ga kuru’, 3. *V-(i)sh-ni xohla-* ‘lit. V suru koto wo hossuru’) ning manolari orasidagi farqni yoritib beradi. Bu qismda Hidaka (2024) ning faqat *V-moqchi* haqidagi ta’rifini tushuntirib beraman. Hidakaning 2024 yilda chop etagan maqolasiga ko‘ra, *V-moqchi* faqat amalga oshish imkoniyati bo‘ladigan voqealar uchun ishlatiladi. Quyidagi 6 va 7-misollarda amalga oshish imkoniyati bo‘lmagan voqealari hodisalar uchun *V-moqchi* noto‘g‘ri ravishda ishlatilishi ko‘rsatilgan.

* <i>Bolalik</i>	<i>payt-im-ga</i>	<i>qayt-moqchi=man.</i>
childhood	time-1SG.POSS-DAT	return-INT=1SG

‘Kodomo no koro ni **modor-i-tai.**’ (Hidaka 2024: 28)

- (7) **Men* *qush* *bo‘l-moqchi=man.*
1SG bird be-INT=1SG
‘Watasi wa tori ni **nar-i-tai.**’ (Hidaka 2024: 28)

Bu maqolada ko‘rsatilgandek, *V-moqchi* maqsad ((1), (2)), muqarrar/belgilangan maqsad (4), reja (5) va amalga oshish imkoniyati baland bo‘ladigan voqeaga tegishli xohishni ifodalaydi deb aytildi. Lekin, bitta yagona izohi mavjud emas. Yapon tilida maqsad ifodalovchi (-u)=*tumori=da*, istak-xohish (-i)-*tai* va reja ifodalovchi (-u)=*yotei=da* alohida shaklda ifodalanadi. Bu maqola *V-moqchini* yapon tilidagi shakllarga qiyoslash orqali uning to‘liq yagona izohini bera olaman.

2. Qiyoslash yo‘li va natija

3.1 bo‘limda maqsad ifodalovchi (-u)=*tumori=da*, 3.2 bo‘limda istak-xohish ifodalovchi (-i)-*tai* va 3.3 bo‘limda reja ifodalovchi (-u)=*yotei=dani* ifodalovchi yapon tilidagi misollarni o‘zbek tili bilan qiyoslayman. Bu maqolada qiyoslash uchun ishlatiladigan o‘zbek tilidagi gaplar Hidaka (2021, 2024) dagi misollar va muallif tomonidan tuzilgan gaplardan iborat. Nazorat qilib bo‘lmaydigan voqeahodisalar (ob-havo va fiziologik hodisalar; har bir holat uchun ikkitadan misol keltirilgan) va “... to omo-u” (...deb o‘ylayman) ning ifodalash uchun uchta gap tuzilgan. Shundan keyin ona tilisi o‘zbek tili bo‘lgan mahalliy kishidan misollar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tekshirtirdim. 3.1 bo‘limda keltirgan misollarni batafsil yoritib beraman.

2.1. Maqsad ifodalovchi (-u)=*tumori=da ga qiyoslash*

Birinchi, ikkinchi bo‘limda aytigandek, suhbat davomida so‘zlovchining maqsadi aniqlashayotgan misolni takroran ko‘rsatib, keyin, *V-moqchi* maqsadsiz harakat ham ifodalashi mumkin yoki mumkin emasligini tushuntirib beraman. Ikkinchi bo‘limdagi keltirilgan tadqiqotlar *V-moqchi* maqsadsiz harakat ham ifodalashini yoritib bermaydi.

A: *Kim=dir u yer-ga bor-ib, un-ga yordamlash-ib*

who=IND that place-DAT go-CVB.SEQ 3SG-DAT help-CVB.SEQ

yubor-ol-ma-y-di=mi?

send-POT-NEG-PST=3=Q

‘Dareka soko ni itte kare wo tetsudatte kurenai ka?’

B: ?? *Bo ‘l-di, Men bor-moqchi=man*

be-PAST 1SG go-INT=1SG

‘Wakarimasita, watasi ga ikimasu.’ (Hidaka 2021)

Bu misol Moriyama (1990: 9) aytganidek, (-u)=*tumori=da* ishlatilgan yapon tilidagi gap ham qoida doirasidan chiqadi.

(9) ??*Dewa watasi=ha asu sanji=ni kenkyuusitu=ni*
INTJ 1SG=TOP tomorrow three.o’clock=DAT laboratory=DAT

ukaga-u=tumori=des-u.

go.HON-IND=intent=COP.HON-IND

[Kutilgan tarjima: Unday bo‘lsa, men ertaga soat uchda kabinetga bormoqchiman.] (= (3))

Ikkinchı bo‘limdagi keltirilgan tadqiqotlar V-moqchi maqsadsız harakat ham ifodalashini yoritib bermaydi. Bu bo‘limda gap egasi tomonidan nazorat qilib bo‘lmaydigan voqealar ya’ni ob-havo va fiziologik hodisalar haqida gapiramiz. Yapon tilida quyidagi 10 va 11-misollar qoida doirasidan chiqadi.

(10)	* <i>Kyou</i>	<i>kaze=ga</i>	<i>huk-u=tumori=da.</i>
	today	wind=NOM	blow-IND=intent=COP

[Kutilgan tarjima: Bugun shamol esmoqchi.]

(11)	* <i>Atu-kute</i>	<i>ase=o</i>	<i>kak-u=tumori=da</i> ² .
	hot-CVB	sweat=ACC	sweat-IND=intent=COP

[Kutilgan tarjima: Havo issiq bo‘lgani uchun terlamoqchi.]

O‘zbek tilida ham “shamol esmoqchi” (12) va “havo issiq bo‘lgani uchun terlamoqchi” (13) degan gaplar mantiqan noto‘g‘ri bo‘ladi.

(12)	* <i>Bugun</i>	<i>kuchli</i>	<i>shamol</i>	<i>es-moqchi</i>
	today	strong	wind	wind-INT

(13)

* <i>Ertaga</i>	<i>havo</i>	<i>issiq</i>	<i>bo‘l-a=di.</i>	<i>Shu-ning</i>	<i>uchun,</i>	<i>ko‘p</i>	<i>terla-moqchi.</i>
-----------------	-------------	--------------	-------------------	-----------------	---------------	-------------	----------------------

tomorrow weather hot be-NPST=3 that-GEN for much sweat-INT

Yuqoridagi (12), (13) musollardan, V-moqchi shu egasi nazorat qila olmaydigan voqeaga ishlatilmaydi degan xulosaga keldim.

Nitta (1991: 208-209) buni quyidagicha izohlab beradi; so‘zlovchining ichki nutqini ifodalovchi ... *to omo-u* ‘...deb o‘ylayman’ fe’li so‘zlovchining maqsadini ifodalaydigan (-u)=*tumori=da* (...moqchiman) fe’li qatnashgan gap ichida uchrashi mumkin emas. Bu *Men qilmoqchiman* shakl faqat tinglovchi mavjud bo‘lgan dialoglarda ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatadi. (Nitta 1991: 208). 14a va 14b misolda ko‘rganimizdek V-moqchi shuningdek ...*deb o‘ylayman* kabi gaplarda uchrashi mumkin emas. ...*deb o‘ylayman* ishlatilganda gapning fe’li o’tgan zamonda emas, balki hozirgi zamonda bo‘lishi kerak. (14c).

14

a.	* <i>Men</i>	<i>qattiq</i>	<i>harakat</i>	<i>qil-moqchi=man</i>	<i>deb</i>	<i>o‘yla-y=man.</i>
	1SG	hard	action	do-INT=1SG	QT	think-NPST=1SG
<i>Men qattiq harakat qil-moqchi=man.</i>						

² To‘g‘ri holat qo‘ysa, *ase=wo* *kak-u=tumori=da* ham ayta oladi. Masalan, irodali harakat qilish hatijasida terlay olishi uchun *kyouha undou=shi-te* *ase=o* *kak-u=tumori=da* [today exercise=do=CVB sweat-IND=intent=COP] ‘Bugun batan tarbiya qilib terlamoqchiman.’ deb aytildi.

b.

1SG hard action do-INT=1SG
'Watasi wa doryoku sur-u=tumori=da.'

c. *Men qattiq harakat qil-a=man deb o 'yla-y=man.*

1SG hard action do-INT=1SG QT think-NPST=1SG
'Watasi wa doryoku siyou to omotta. (lit. Watasi wa doryoku suru to omotta.)'

Shuning uchun, *V-moqchi* so‘zlovchining maqsadini ifodalaganida yapon tiliga o‘xshab faqat tinglovchi mavjud bo‘lgan dialog holatida ishlatiladi.

Bu bo‘limda *V-moqchi* 1. suhbat ichida so‘zlovchining maqsadi aniq bo‘layotganda ishlatilmasligi, 2. gap egasi tomonidan nazorat qilib bo‘lmaydigan voqeal-hodisalarga ishlatilmasligi, 3. *deb o 'yla-y=man* fe’li qatnashgan gap ichida kelmasligini ko‘rsatdi. “(-u)=tumori=da” ham 1.-3. belgini ko‘satdi.

2.2. *Xohish-istik ifodalovchi (-i)-tai ga qiyoslash*

Ikkinch bo‘limda ko‘rsatilgandek, *V-moqchi* faqat amalgal oshish imkoniyati baland bo‘ladigan hodisaga ishlatiladi. Muallif buni 15- va 16-misollarda ko‘rsatadi.

(15)
Pul yig‘-ib, ayol-im va farzand-lar-im-ni
money gather-CVB.SEQ woman-1SG.POSS and child-PL-1SG.POSS-ACC

Yaponiya-ga chaqir-moqchi=man.

japan-DAT call-INT=1SG

‘Watasi wa okane wo tamete, saisi wo Nihon ni yob-i-tai.’ (Hidaka 2024: 27)

(16)
Grant yut-ib, Yaponiya-dagi universitet-ga o ‘qi-sh-ga bor-moqchi=man.

Grant win-CVB.SEQ Japan-ADJLZ university-DAT study-VN-DAT go-INT=1SG
'Syoogakukin wo totte, Nihon no daigakuu ni ryuugakuu s-i-tai.' (Hidaka 2024: 27)

Amalga oshish imkoniyati bo‘lmaydigan hodisa uchun *V-moqchi* ishlatilmaydi. Lekin, yapon tilida *(-i)-tai* ishlatiladi. Buni biz takroran 17- va 18-misollarda ko‘ramiz.

(17)	*Bolalik	payt-im-ga	qayt-moqchi=man.
	Childhood	time-1SG.POSS-DAT	return-INT=1SG
‘Watasi wa kodomo no koro ni modor-i-tai .’ (= (6))			

(18)	*Men	qush	bo 'l-moqchi=man.
	1SG	bird	be-INT=1SG
‘Watasi wa tori ni nar-i-tai .’ (= (7))			

Yuqorida aytib olganimizdek, *V-moqchi* o‘zbek tilida faqat amalga oshish imkoniyati baland bo‘ladigan hodisalarga ishlatiladi, lekin yapon tilidagi *(-i)-tai* o‘sha voqeа-hodisalarning ro‘y berish imkoniyati past bo‘lsa-da, lekin so‘zlovchi ularning amalga oshishiga ishongan holatlarda ishlatiladi.

2.3. *Rejani ifodalovchi (-u)=yotei=da ga qiyoslash*

Ikkinci bo‘limda vebdagи xabar maqolasining sarlavhasi misol sifatida keltirilgan edi. Bu misol 19-misolda takroran ko‘rsatiladi.

(19)

O‘zbekiston	2020	yil-gacha	eksport	hajm-i-ni
Uzbekistan		year-until	export	quantity-3.POSS-ACC

5 milliard dollar-ga yet-kaz-moqchi.
billion dollar-DAT reach-CAUS-INT

‘Uzubekisutan wa 2020 nen made ni yusyuturyoo wo 250 oku doru ni tootatu saser-**u=yotei=de=aru**.’ (= (5))

Iori, Takanasi, Nakanisi va Yamada (2001:36) “tumori=da” so‘zlovchining shaxsiy maqsadini ifodalashini, lekin “yotei=da” boshqa odam bilan maslahat qilib qaror qilish yoki rasmiy qarorni ifodalashini aytishadi. 19-misol rasmiy qarorni ifodalagani uchun uni yapon tiliga “(-u)=tumori=da” yordamida tarjima qila olmaymiz. Shuning uchun, *V-moqchi* kengroq ma’noni ifodalab, boshqa odam bilan maslahat qilib qabul qilingan qarorni yoki rasmiy qarorni ifodalashda ham ishlatilishi mumkin.

3. Xulosa va taklif

1- jadvalda 3-bo‘limdagi qiyos natijalarini umumlashtirib, *V-moqchi* ning umumiyl yagona ta’rifi keltiriladi. Shundan keyin, yapon tili dagi *(-u)=tumori=da* ning izohlari haqida bir necha takliflar ham beriladi.

1-jadval: *V-moqchini (-u)=tumori=da*, *(-i)-tai* va *(-u)=yotei=da* ga qiyoslash natijalari

			V-moqchi	Misol
3.1	Maqsad (-u)=tumori=da	1. Suhbat davomida so‘zlovchining maqsadi aniq bo‘layotganda ishlatilmaydi.	○	(8)
		2. Gap egasi tomonidan nazorat qilib bo‘lmaydigan hodisaga ishlatilmaydi.	○	(12), (13)
		3. So‘zlovchining ichki nutqini ifodalovchi <i>deb o‘yla-y=man</i> ‘to omou’ fe’li qatnashgan gap ichida kelmaydi.	○	(14)
3.2	Xohish (-i)-tai	4. Amalga oshish imkoniyati baland bo‘ladigan voqeа-hodisaga ishlatiladi.	○	(15), (16)
		5. Amalga oshishi mumkin bo‘lmagan voqeа-hodisalarga ishlatiladi.	×	(17), (18)
3.3	Reja (-u)=yotei=da	6. Boshqa odam bilan maslahat orqali qabul qilingan qaror yoki rasmiy qarorni ham ifodalaydi.	○	(19)

Uchinchi bo‘limda 1-b qismi 1-jadvalda keltirilgan misollardagi V-moqchingiz izohlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Suhbat davomida so‘zlovchining maqsadi aniq bo‘lganda ishlatilmaydi: 3.1 bo‘limdagi misol (9) (2 bo‘limdagi (3)) da ko‘rsatilgandek, Moriyama (1990: 9) firkiga ko‘ra, (-u)=tumori=da aniq belgilangan maqsadi ifodalaydi. 8-misolda ko‘rsatilganidek V-moqchi so‘zlovchining maqsadi suhbat boshlanishidan oldidn belgilangan maqsadi suhbat davomida aniqlashgan holatlarda ishlatilmaydi, shuning uchun V-moqchi suhbat boshlanishidan oldin belgilangan maqsadni ifodalydi deyishimiz mumkin.

2. Gap egasi tomonidan irodasi tomonidan nazorat qilib bo‘lmaydigan voqeа-siz voqeaga ishlatilmaydi: 3.1 bolimda V-moqchi “Kuchli shamol esmoqda” (12) va “havo issiq, shuning uchun terlayapman” bo‘lgani uchun terlamoq” (13) degan gaplarda ishlatilmaganini aytib o‘tdik. Shunga asoslangan holda V-moqchi gap egasi nazorat qila oladigan voqeа-hodisalarni ifodalashda ishlatiladi desak bo‘ladi. Bu (-u)=tumori=da misolida ham xuddi shu holatni ko‘ramiz.

3. *deb o‘yla-y=man* ‘to omou’ fe’li qatnashgan gaplar sirasiga tkirmaydi: Ikkinchisi va 3.1 bo‘limda ko‘rsatilgandek, Nitta (1991: 208-209) *deb o‘yla-y=man* ‘to omou’ faqatgina tinglovchi mavjud bo‘lgan suhbat davomida ishlatilishi mumkin deydi, chunki u ichki nuqtni ifodalaydi, shuning uchun maqsadini ifodalovchi (-u)=tumori=da qatnashgan gap doirasida ishlatilishi mumkin emas. Xuddi shuningdek, V-moqchi 12-misolda ko‘rsatilganidek, *deb o‘yla-y=man* ‘to omou’ qatnashgan gaplarda ham kelishi mumkin emas, chunki u faqat tinglovchi bo‘lgan gaplarda ishlatiladi.

4. Amalga oshish imkoniyati baland bo‘ladigan voqeа-hodisalarga ishlatiladi.

5. Amalga oshish imkoniyat past bo‘lgan voqeа-hodisaga ishlatilmaydi: (-i)-tai amalga oshish imkoniyati bor yoki yo‘qligiga qaramasdan ishlatiladi. Lekin, V-moqchi faqat amalga oshish imkoniyati bo‘ladigan voqeaga islatiladi. Chunki, aslida amalga oshish imkoniyati bo‘lmaydigan voqeaga nisbatan so‘zlovchi biror bir maqsad ifodala olmaydi.

6. Boshqa odam bilan maslahat qilib, qabul qilingan qaror yoki rasmiy qarorni ham ifodalaydi: 3.3 bo‘limda eslatib o‘tilgan Iori, Takanasi, Nakanisi va Yamada (2001:36) tomonidan izohlarga yana murojaat qilsak, *tumori=da* so‘zlovchining shaxsiy maqsadni ifodalashini, lekin *yotei=da* boshqa odam bilan maslahat qilib, qabul qilingan qaror yoki rasmiy qarorni ifodalashi aytilgan. Bu 19-misolda yaxshi tushuntirib berilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda *V-moqchi* quyidagi uch semantik va pragmatik belgilarga ega deyishimiz mumkin:

① So‘zlovchi suhbatni boshlashdan oldin amalga oshirishini o‘ylab qo‘yan voqeaga ishlatiladi.

② *V-moqchi* so‘zlovchining shaxsan o‘zi o‘ylab qo‘yan voqeaga yoki so‘zlovchidan tashqari boshqa odamlarning kelishishidan qaror qilingan voqealarga ham ishlatiladi.

③ Tinglovchi bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, *V-moqchi* nafaqat so‘zlovchining shaxsiy maqsadi, balki uning rejalarini ham ifodalaydi. Bunday xulosa nima uchun *V-moqchi* so‘zlovchidan boshqa odamlar tomonidan qaror qilingan voqeaga ham ishlatilishni tushuntirib beradi.

Ona tili o‘zbek tili bo‘lgan talabalarga yapon tilidagi *(-i)-tai* shaklini o‘rgatganda diqqat qiladigan narsalarni taklif qilaman. “Minnano Nihongo” (dunyoda eng mashhur yapon tili darsligi) dagi 13-darsda *(-i)-tai* shaklini o‘qishi uchun quyidagi gap yapon tilida yozilgan.

(20)	<i>watashi=ha</i>	<i>sushi{=wo/=ga}</i>	<i>tabe-tai=des-u.</i>
	1SG=TOP	sushi=ACC/=ACC	eat-INT=COP.HON-IND

‘Men sushini yeishni xohlayman.’ (“Minnano Nihongo”, p.110)

Buning o‘zbek tili tarjimasi sifatida quyidagi 21-misol ko‘rsatiladi.

(21)	<i>Men</i>	<i>sushi</i>	<i>ye-moqchi=man.</i>
	1SG	sushi	eat-INT=1SG

1- jadvalda ko‘rasatilganday, *(-i)-tai* amalga oshish imkoniyati baland ham past ham bo‘ladigan hodisaga ishlatiladi. Lekin, *V-moqchi* imkoniyat past bo‘ladigan hodisaga ishlatilmaydi. Shuni talabalar bilishi kerak emas, ammo o‘qituvchi bilim sifatida bilishi kerak.

Minnatdorchilik

Ushbu ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda meni qo‘llab-quvvatlagan JSPS Granti JP22J01538 va JP22KJ1443ga minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Qisqartmalar

=	clitic border	HON	honorific	POSS	possessive
-	suffix border	IND	indicative	POT	potential
1, 2, 3	1, 2, 3 person	INT	intentional	PTCP	participle
ACC	accusative	INTJ	interjection	Q	question marker
ADJLZ	adjectivize	LOC	locative	QT	quotation
CAUS	causative	NEG	negative	SEQ	sequential
COP	copula	NOM	nominative	SG	singular
CVB	converb	NPST	non-past	TOP	topic
DAT	dative	PAST	past	VN	verbal noun
GEN	genitive	PL	plural		

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bodrogligli, András J. E. (2003) *An academic grammar of Modern Literary Uzbek*. München: Lincom Europa.
2. Hidaka Shinsuke (2021) Uzubekugo ni okeru V-moqchi no honsitu-teki na imi. Gengogaku Fesu 2021 plakati.
3. Hidaka Shinsuke (2024a) On the use of three forms expressing desire in Uzbek. Kogura, Norikazu and Kumiko Sato (eds.) *Aspects of Turkic Grammar 2: Information Structure and Knowledge Management*. Fuchu: ILCAA.
4. Hidaka Shinsuke (2024b) Nihongo no ganboo/isi hyoogen to Uzubekugo no V-moqchi no taisyoo. *Gengo no huhensei to kobetusei*. 15: 85-95.
5. Iori Isao, Takanasi Sino, Nakanisi Kumiko, Yamada Toshihiro (2001) *Tyuuzyookyuu wo osieru hito no tame no Nihongo Handobukku*. Tokyo: 3A Network.
6. Kononov, A. N. (1960) *Grammatika sovremennoego Uzbekskogo literaturnogo jazyka*. Moskva, Leningrad: Izdatel’stova akademii nauk SSSR.
7. Moriyama Takurou (1990) Isi no Modaritii ni tuite. *Handai Nihongo Kenkyuu*. 2: 1-19.
8. Nitta Yoshio (1991) *Nihongo no Modaritii to Ninsyoo*. Tokyo: Hituzi Syoboo.

